

MUSIQA LEKSIKASI TADQIQI

Shohsida Toshnazarovna ESHBO‘TAYEVA

doktorant

Filologiya fanlari bo‘yicha (PhD) falsafa doktori

Alisher Navoiy nomidagi

o‘zbek tili va adabiyoti universiteti

Toshkent, O‘zbekiston

Shohsidaeshbotayeva92@gmail.com

Annotatsiya

Ushbu maqolada musiqa leksikasi va uning tarkibiga kiruvchi musiqa terminlarining jahon tilshunosligida tadqiq etilishi hamda antroposentrik paradigma nuqtayi nazardan terminologik tizimni, xususan, musiqa terminlarni o‘rganish muhimligi yoritilgan. Lingvokognitiv va lingvopragmatik yondashuvlar orqali musiqa terminlarini o‘rganish muhimligi ta’kidlangan.

Tayanch so‘zlar: musiqa leksikasi, termin, antroposentrik paradigma, lingvokognitiv yondashuv, lingvopragmatik yondashuv.

ИЗУЧЕНИЕ МУЗЫКАЛЬНОГО ЛЕКСИКОНА

Шохсида Тошнazarовна ЭШБУТАЕВА

докторант

Доктор филоософии по (PhD) филологическим наукам

Университет узбекского языка и

литературы имени Алишера Навои

Ташкент, Узбекистан

Аннотация

В данной статье рассматривается изучение музыкального лексикона и составляющих его музыкальных терминов в мировой лингвистике, а также важность изучения терминологической системы, в частности музыкальных терминов, с точки зрения антропоцентрической парадигмы. Подчеркивается важность изучения музыкальных терминов с помощью лингвокогнитивного и лингвопрагматического подходов.

Ключевые слова: музыкальный лексикон, термин, антропоцентрическая парадигма, лингвокогнитивный подход, лингвопрагматический подход.

Til va madaniyat o‘zaro chambarchas bog‘liq tushunchalardir. Madaniyatning bir qismi sifatida musiqa til birliklari bilan aloqaga kirishib, birini to‘ldirib boruvchi ma‘lumot almashinish vositasi vazifasini bajaradi. So‘z va musiqa o‘zaro aloqaga kirishib, xalq madaniyatini o‘zida aks ettiradi. Bugungi kunda antroposentrik paradigma nuqtayi nazaridan musiqa sohasiga oid til birliklarining o‘ziga xos xususiyatlarini aniqlash yuzasidan qator tadqiqotlar

amalga oshirilmoqda. Xususan, musiqa leksikasi lingvomadaniyatshunoslik, sotsiolingvistika, lingvokognitiv tilshunoslik va lingvopragmatika kabi yo‘nalishlarda tadqiq etilmoqda.

Musiqa leksikasi tarkibiga kiruvchi terminlar sohaga xos tushunchani ifodalashi bilan farqlanuvchi birliklar hisoblanadi. Termin – insonning ilm-fan faoliyati doirasi va bilish nazariyasining asosiy leksik birligi bo‘lib, bir vaqtning o‘zida obyekt va jarayonlarni nomlash, olamni anglash quroli sifatida xizmat qiladi. Shuningdek, termin bir tilning ikkinchi bir tilga bilish va anglash jarayonining o‘zlashishini ham anglatadi, deyish mumkin. Mana shunday terminlar sirasiga madaniyat va san’at sohasiga oid musiqa terminlari ham kiradi.

Musiqa terminlarini tadqiqot obyekti sifatida o‘rgangan O. Petrovskaya ularni musiqa madaniyati tarkibiy qismi deb hisoblaydi va musiqa terminologiyasi va musiqa terminlarini quyidagicha ta’riflaydi:

Musiqa terminologiyasi – asosini musiqa tovushlari tashkil etuvchi san’at sohalarining terminlar tizimi.

Musiqa termini – kasbiy tushuncha. Semantik jihatdan yaxlit, og‘zaki va yozma shaklga ega. Tilning aniq, funksional jihatdan muhim unsuri [1].

Inson faoliyati u yoki bu tarzda musiqa bilan bog‘liq. Milliy tilning muayyan qismini tashkil qiluvchi musiqa terminlari nafaqat musiqachilar, balki tilshunoslar uchun ham o‘rganish obyektidir. O.Petrovskaya rus tili musiqa terminologiyasi tarkibidagi terminlarning 80 foizi Italiya ijrochilik san’atining musiqa terminlari, 12 foizi fransuz, 5 foizi nemis, 2 foizi ingliz, 1 foizi lotin tilidan o‘zlashgan terminlar tashkil qilishini aytib o‘tadi. Bilamizki, XIX asrdan boshlab rus tili tarkibidagi ushbu musiqa terminlari bevosita va bilvosita o‘zbek tili tarkibiga o‘zlasha boshlagan. Shuningdek, O. Petrovskaya musiqiy terminlar tarkibida grafik terminlarni alohida ajratish lozimligini ta’kidlab, ular ham ma’lum semantik xususiyatga ega ekanligini aytadi. Olima grafik terminlarni *belgi*, *harf*, *raqam* kabi ichki guruhlarga ajratgan. So‘z va so‘z birikmasi shaklidagi musiqa terminlarini esa tempga oid musiqa terminlari, dinamikaga oid terminlar, artikulyatsiyaga oid terminlar, ekspressiv terminlar kabi guruhlarga tasniflaydi.

Rus tilshunosi N. Tkachenko fikriga ko‘ra, so‘zning semantik ma‘nosi, uning umumiy leksik tizimdagi o‘rni, kelib chiqishi, ishlatilishi, qo‘llash sohalari va ekspressiv-stilistik xususiyatlari ularni o‘rganishi jarayonida aniqlanadi [2]. Asosiysi, ushbu terminlar matn tarkibida muayyan xususiyatlarga ega bo‘ladi. Bunda termin funksional jihatdan tushuniladi. Har bir musiqa terminining etimologiyasini yoritish natijasida musiqa terminologiyasining umumiy shakllanishi va rivojlanishini belgilash mumkin. N. Tkachenko musiqa terminlarini quyidagicha mavzuviy guruhlariga ajratadi:

1. Musiqiy asboblari va ularning tarkibiy qismlari: *gitara, fortepiano*.
2. Qo‘shiq ovozlari va ularning registrlari: *baritone, bas, soprano, tenor*.
3. Musiqiy guruhlar: *ansambl, duet, orkestr*.
4. Kasblari, mutaxassisliklari, rollari: *qo‘shiqchi, barabanchi*.
5. Amallar, mehnat jarayonlari: *improvizatsiya, solfedjo*.
6. Musiqa janrlari, turlari, yo‘nalishlari: *balet, ballada, madhiya, opera, qo‘shiq, simfoniya, sonata*.
7. Tanlangan musiqa asarlari va ularning qismlari: *vals, aria*.
8. Musiqiy shakl va ularning unsurlari.

Tadqiqotchining fikricha, ushbu musiqa terminlarining ayrimlari boshqa terminlar uchun umumiy xarakterga ega. Masalan: *Opera* o‘z ichida *hajviy opera, opera-balet, lirik opera* kabi guruhlariga tasniflanadi. *Ansambl* – *vokal ansambli, kamer ansambl, torli ansambl, xalq cholg‘ulari ansambli, fortepiano ansambli* kabi guruhlariga bo‘linadi. Ushbu terminlar bir umumiy mavzuning alohida xususiyatlarini ifodalaydi. Ichki guruhlar umumiy termin asosida birlashadi.

Ingliz tilshunosligida musiqa va tilning kognitiv jihatdan mushtarakligi to‘g‘risidagi qarashlar Aniruddh D.Patel tomonidan ilgari surilgan bo‘lib, u Amazonkaning Piraxa qabilasi tilida raqamlar va turg‘un ma‘noni ifodalaydigan atamalar yo‘q bo‘lishiga qaramay, *musiqa hamda unga moslab kuylanuvchi qo‘shiqlar* borligini va ular kommunikatsiya uchun xizmat qilishini ta‘kidlaydi [3]. Demak, san‘at va madaniyatga oid birliklar tilning aloqa almashinish, ma‘lumot tashish, ta‘sir ko‘rsatish kabi vazifalarini bajaradi, deya olamiz. Shuning uchun

ham olim musiqa va tilning kognitiv uyg'unligi borasidagi tadqiqotlar tilshunoslikda sanoqli bo'lib, bunday ishlar sonini ko'paytirish lozimligini aytadi.

G'arb musiqa terminologiyasidagi ekspressivlik (hissiy bo'yoqdorlik)ni ifodalovchi: *major, minor, tembr, temp, garmoniya, kuy, artikulyatsiya, dinamika, konsonans, dissonans, regstr* kabi terminlar eshitilgan zahoti insonda kuy haqidagi umumiy xulosa shakllantirishi va uning paydo bo'lishida termin axborot berishini qayd etadi. Ch.Darvin ta'limotiga tayangan holda til va musiqani tabiiy hodisa sifatida tadqiq etgan Aniruddh D.Patel bu jarayonda madaniy bilish va kognitiv anglash jarayonlarini eng muhim omillardan sanaydi.

Musiqa va uning tarkibiy qismi sanalgan terminlarning madaniy xususiyatlari haqida fikr bildirgan M.Herdon va N.Msleod *qo'shiq aytmoq* birikmasi madaniy va kognitiv jihatdan faqat *insonga xos* ekanligini alohida etirof etadi [4]. Shuningdek, insonning nutq jarayoni ham ma'lum bir musiqiylikka asoslanishini ta'kidlaydi. Musiqaning shovqindan farqi deya olim uning *ma'lum bir madaniy muhit mahsuli* ekanligini ko'rsatadi. Anglashiladiki, ijtimoiy va madaniy bilish asosida ijtimoiy-kognitiv qobiliyat shakllanib, til va musiqaning mushtarak holda anglanishiga olib keladi.

Dunyodagi har bir madaniyat o'z tili va musiqasiga ega. Madaniyatning tarkibiy qismi sanalgan musiqa til bilan o'zaro aloqaga kirishib, xalqning madaniy konseptini o'zida voqealantiradi.

Barcha madaniyatlar vaqti-vaqti bilan tovushlarning yagona tizimidan foydalanadi. Bunday tillar sirasiga sun'iy tillar tarkibidan *solresol tilini* misol qilib keltirish mumkin. Musiqachi, bastakor, musiqa o'qituvchisi Fransua Sudre tomonidan 1817–1862-yillar oralig'ida ishlab chiqilgan bu til musiqaga asoslangan birinchi va yagona tildir. Ushbu tilning asosida musiqadagi yetti nota turadi. Semantik xususiyatlar ushbu notalar birikuviga yuklangan. Shuningdek, yetti xil rang yetti notaga ishora qiladi va ranglar uyg'unligi sema ifodalash uchun xizmat qiladi. Musiqiy nota asosida yaratilgan ushbu til barcha xalqlar uchun umumiy xarakterga ega bo'lishi hamda til umumiyliги uchun xizmat qilishi nazarda tutilib yaratilgan sun'iy tildir [5].

Musiqqa terminlariga dunyoning turli hududlarida turlicha ma'nolar yuklangan. Masalan, Yevropa va Amerika madaniyati vakillari qushlarning kuylashini ham "musiqqa" deb atashadi. Faqat bu musiqaning inson yaratadigan musiqadan farqi sifatida uni ong va qalb uyg'unligida yaratilmaganligida deb ko'rsatadi. Ayrim madaniyat vakillari esa musiqani faqat inson bilan bog'lashadi. Jumladan, Papua-Yangi Gvineyadagi Kaluli xalqi uchun qushlarning kuylari o'lgan va qushlarga aylangan inson qo'shiqlarini anglatadi. Shuning uchun ham ular qushlar sayrashini eshitishganda yig'lashadi [6]. Shuningdek, ushbu termini areal lingvistik nuqtayi nazaridan tahlil qilgan fin tadqiqotchisi Chingduang Yurayong fors tilida *saz*, mo'g'ul tilida *kög*, sanskrit tilida *samgitam* deb nomlanishini ta'kidlaydi. Tadqiqotchining mulohazasiga ko'ra, *kög* so'zi *musiqqa* termini sifatida barcha turkiy xalqlar uchun umumiy konseptni ifodalaydi [7].

Musiqqa va uning terminologik tizimi dunyo tilshunosligida antroposentrik nuqtayi nazardan tahlil qilinayotgan bir davrda musiqqa terminlarini lingvokognitiv va lingvopragmatik tadqiq etish orqali til, tafakkur va muloqot o'rtasidagi bog'liqliklar aniqlanishi bilan dolzarbdir. Ze'ro, V.Gumboldt ta'kidlaganidek: "Millatim tilining chegaralari mening dunyoqarashim chegaralarini belgilaydi" [8]. Ya'ni til birliklari o'zi xos bo'lgan tilning milliy konseptini ifodalaydi.

Haqiqatdan ham, til millat borligi va birligining boqiyiligini ta'min etadigan, xalq tafakkur tarzining tamalida turadigan, qavmning qalbi qa'ridagi qiyossiz qudratni sog'lom saqlaydigan, milliy ma'naviyat, milliy o'zlik degan teran tushunchalarning tirikligiga tirgak tutadigan benazir bir vositadir [9].

Jahon tilshunosligida, xususan, turkologiyada musiqqa terminlarining o'rganilishiga doir qator ilmiy tadqiqotlar yaratilgan bo'lib, ushbu izlanishlar natijasi o'zbek tili musiqqa terminlari tadqiqi uchun ham asosiy manbalardan bo'la oladi.

Turkiy xalqlar tarixan til, madaniyat, san'at va adabiyot sohalari mushtarak bo'lgan xalqlar sanaladi. Ularning etnik kelib chiqishi, lisoniy shakllanishi, madaniy qarashlari bir ildizga borib taqaladi. Oltoy tillar oilasi tarkibiga kiruvchi tillar tadqiqi turkologiya sohasining obykti sanaladi. 1926-yilda Bokuda Birinchi

turkologiya qurultoyi bo‘lib o‘tgan [10]. Shu yildan boshlab rasman ushbu xalqlarning tilga va tilshunoslikka oid qarashlari umumiylik kasb etdi. Keyinchalik bu xalqlarning til xususiyatlari jahon tilshunosligi tomonidan ham chuqur tadqiq etila boshlandi. Masalan, Germaniyadagi turkologiya va turkiy tilshunoslik uzoq davr mobaynida dunyo turkologiya fanining karvonboshilaridan biri bo‘lib keldi [11].

Musiqqa terminlari ham ushbu xalqlarda umumiy xarakterga ega bo‘lib, ma’lum lekisik, fonetik hamda morfologik xususiyatlariga ko‘ra farqli jihatlari mavjud. Bu farqlar, asosan, ushbu xalqlarning boshqa hududlar va xalqlar bilan aloqasi natijasida yuzaga kelgan. Terminologik tizimning til sathiga ta’siri katta ekanligini anglagan turkiy xalqlar o‘z til tarkibini doimiy nazorat qilishga harakat qilishgan. Bugungi kunda til tizimida turkiy tillarga xos xususiyatlarni o‘zida ko‘proq saqlagan, o‘zlashmalardan imkon qadar qocha olgan turk tili musiqa terminologiyasida ham ko‘pgina tadqiqotlar olib borilgan. Bunday tadqiqodchilar sirasiga bastakor Ahmet Adnan Saygunni keltirish mumkin [12].

Turk tili tarkibidagi arabiy va forsiy o‘zlashmalarni turkiy terminga almashtirishga oid tadqiqotlar 1932 –1950-yillar oralig‘ida amalga oshirilgan.

1950-yil o‘tkazilgan Oltinchi turk tili qultoyida musiqa va tasviriy san’at terminlarining turkchalashtirilishiga oid tadqiqotlar tamomlanganligi rasman aytilgan. Turk tili musiqa terminologiyasidagi ilk o‘zgarishlar 1826-yildan keyin Usmonli imperiyasining g‘arb bilan siyosiy aloqalari natijasida yuzaga kelgan. Musiqa sohasidagi ilk aloqalar italyanlar bilan bo‘lganligi uchun ushbu tildan turk tiliga *nota*, *tempo*, *skalo*, *musiqa* kabi terminlar o‘zlashgan. Keyinchalik bunday terminlarning bir qismi fransuzcha terminlar bilan almashtirilgan. Bugungi kunda turk tili tadqiqotlarida musiqa terminlari tahlil etilgan ilk izlanish sifatida 1875-yilda Husayin Remzi tomonidan fransuzchadan tarjima qilingan “Usul-u nota” nomli asar keltirib o‘tilgan. Ushbu kitobda ko‘pgina terminlar aynan qabul qilingan bo‘lsa, ba’zilariga turk tili tarkibidan leksema topilib, tavsiya sifatida berilgan. 1900-yilning boshlarida ham Rauf Yekta va Sadettin Arel tomonidan musiqa terminlarini turkchalashtirish masalasiga alohida e’tibor qaratilgan [13]. Masalan,

gamma – dizi – gamma, major – büyük – major, minor – küçük – minor, akkord – uygu – uyg'un, armature – donanım – uskunalar, transpositsion – göçür – ko'chish kabi musiqa terminlariga turk tili tarkibidan kelib chiqib tavsiyalar berilgan. Ahmed Saygun esa o'zlashma terminga muqobil topish ba'zilar uchun biroz qiyin bo'lsa, ayrimlari terminlarda juda oson ekanligini aytib o'tadi. Olim chetdan kirib kelayotgan termini tarjima qilishdan ko'ra, uning mazmunini o'zida aks ettirgan leksemani olish kerakligini taklif sifatida kiritadi. Shuningdek, shunday musiqa terminlari borki, uning muqobilini shakllantirish, tarjima qilish turli g'alizliklarni keltirib chiqaradi. Shuning uchun bunday vaziyatda o'zlashmani to'g'ridan-to'g'ri qabul qilish maqsadga muvofiqdir. Turk tili musiqa terminologiyasi tarkibidagi o'zlashmalarni turkchallashtirishga qaratilgan tadqiqotlar, asosan, quyidagi mezonlar asosida olib borilgan:

- 1) murojaat qilinadigan manbaa: umumxalq tili va qadimiy matnlar;
- 2) qo'llaniladigan usullar: affiksatsiya, kompozitsiya usullaridan foydalanish orqali eskirgan so'zni yangi ma'noda qo'llash; termini tarjima qilish; xalqaro musiqa termini qabul qilish;
- 3) terminning xususiyati: oshkoralik (semaning oshkoraligi), tizimlilik, izchillik, kontekstga bo'ysunmaslik, tejamkorlik.

Turk olamida turkman tiliga oid musiqa terminlar O.Eyberdiyevaning izlanishlarida tadqiq etilgan [14]. Ushbu tadqiqotda turkman tiliga oid Go'ro'g'li dostonida aks etgan musiqa terminlariga to'xtalib, ularning semantik xususiyatlariga alohida e'tibor qaratiladi. Masalan, "ayadı saz bilen okamak" jumlasidagi *saz* leksemasi *musiqa*, "aydım aytmak" birikmasidagi *aydım* leksemasi *qo'shiq*, "belent perde" birikmasi *yuqori ovoz*, "dutarın tarını çekmek" birikmasida *dutar – dutor, tar – dutor ipi* ma'nolarini anglatgan. Shuningdek, ushbu ishda turk va turkman tillaridagi musiqa terminlari leksik va semantik jihatdan qiyoslangan.

Terminologik tizimdagi bunday qiyosiy tadqiqotlar qardosh xalqlar terminologiyasining umumiy va farqli xususiyatlarini aniqlash va bu jarayonga salbiy ta'sir etayotgan birliklarni umumturkiy muqobiliga almashtirish kabi xulosalarni kun tartibiga qo'yadi.

Tatar musiqa terminlari E.Galimovning nomzodlik ishida o'rganilgan [15].

O'zbek tili terminologik tizimi tarkibida ham musiqa terminlari kattagina qismni tashkil qiladi. Musiqa terminlari ilk bor 1981-yilda Sami Azizov tomonidan tadqiq etilgan [16]. Tadqiqotchi musiqani insonning ma'naviy dunyosi, uning intilishlari, his-tuyg'ulari, istaklari badiiy shaklda ifodalanishi, deya ta'riflaydi. Musiqa va qo'shiqda xalq tarixi va ruhi yashaydi, deya musiqa san'atining lingvokulturologik xususiyati borligiga urg'u beradi.

Olim o'zbek musiqa terminologiyasining shakllanishi va rivojlanishiga katta ta'sir ko'rsatgan davr sifatida XIX asr oxiri – XX asr boshlarini qayd etadi. Bu davrda rus tili orqali bevosita hamda bilvosita musiqa terminlari o'zbek tili tarkibiga kirib kelganligini ta'kidlab, tadqiqotda aynan qabul qilingan yoki kalka usulidan foydalangan holda o'zlashgan musiqa terminlariga alohida e'tibor qaratadi. Shu bilan birga, arab va fors-tojik tilidan o'zlashgan musiqa terminlarini ham tasniflaydi. Biroq tadqiqotchi biror o'zlashmaga uning mazmunini o'zida aks ettirgan o'zbekcha muqobilni tavsiya etmaydi. Buning sababi o'sha davrdagi tilga siyosat ta'siri yuqoriligi bo'lishi mumkin deb baholandi.

Ushbu tadqiqotda musiqa terminlari, asosan, leksik va grammatik jihatdan o'rganilgan bo'lib, ularning talay qismi bugungi kunga kelib, istorizm yoki arxaizimga aylangan.

Tadqiqotlar tahlilidan kelib chiqib aytish mumkinki, musiqa terminlari jahon tilshunosligida qiyosiy-tarixiy, sistem-struktur tilshunoslik nuqtayi nazaridan chuqur tahlil etilgan. Turkiy tillar uchun umumiy bo'lgan musiqa terminlari umumturkiy madaniy konsept asosida shakllanib, olamni ilmiy bilish natijasida yuzaga kelgan bilimlari negizida voqelangan lingvokognitiv birlik sanaladi.

Xulosa o'rnida aytish mumkinki, musiqa leksikasini lingvokognitiv yondashuv asosida tadqiq etish orqali musiqa terminlarining inson ongida qanday konseptual modellarni shakllantirishi hamda ilmiy bilishdagi o'rni aniqlansa, lingvopragmatik yondashuv natijasida esa musiqa terminlarining nutq jarayonidagi ahamiyati, kommunikativ maqsadga xizmat qilishi, tinglovchi va o'quvchiga qanday ta'sir ko'rsatishini ilmiy asoslashga erishishiladi. Bunday tahlil orqali

musiqa terminlari nafaqat sohaviy birlik, balki tafakkur va kommunikatsiyaning muhim vositasi ekanligi ochib beriladi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. Петровская О. Формирование и развитие музыкальной терминологии исполнительского искусства (На материале русского, итальянского, английского, французских языков): автореферат кандидат филологических наук. – Майкоп, 2009.

2. Ткаченко Н. К истории музыкальной терминологии // Язык, сознание, коммуникация. Филология. – Москва, 1998. – С. 69 – 71.

3. Aniruddh D. Patel. Music, language and the brain. – Oxford: Oxford University Press, 2008. – P. 3.

4. Marcia Herndon and Norma McLeod. Music as culture. Norwood editions Darby, Pennsylvania, 1982. – P. 10 – 11.

5. Philip Novikov. RUDN Journal of language studies, semiotics and semantics. 2022. Vol. 13. – № 2. – P. 461– 462. URL: <https://journals.rudn.ru/semiotics-semantics>

6. Jeff Todd Titon., Timoti J., Kuli., Devid Lok., P. MakAllester, Enn K., Rasmussen., Devid B. Rek., Jon M., Shexter., Jonatan P., J. Stok., R. Anderson Satton. World of Music an Introduction to the Music of the World’s Peoples. – Canada, 2002 – 2009. – P. 6.

7. Chingduang Yurayong. Areal-linguistic approach to the diversity of the generic terms for ‘Music’ in the world’s languages. University of Helsinki, 2018. – P. 681–682.

8. Saydirahimova N. Madaniyatlararo muloqot. – Toshkent, 2021.

9. Махмудов Н. Суюк тилимизнинг буюк рутбасига масъулик // Ўзбек тили ва адабиёти, 2023. – № 5. – Б. 3.

10. Худойберdiyev J. Birinchi turkologiya qurultoyining chaqirilishi va maqsadi haqida // O‘zbekiston til va madaniyati, 2021. – № 4. – В. 19.

11. Eltazarov J. O‘zbek tilining Germaniyada o‘rganilishi tarixidan (XX asrgacha bo‘lgan davr). Uluslararası Türk Lehçe Araştırmaları Dergesi (TÜRKCLAD) 3. Cilt, 12. Sayı, 2019. – S. 71–77. Türkiye.
12. Ahmed Adnan Saygun. Doğu-batı arası müzik köprüsü. – İstanbul: YKY, 2007.
13. Yalçın G. Hüseyin Sadettin Arel’in armoni kitaplarındaki armonik ve terminolojik yaklaşımları // Rast müzikoloji dergisi, Cilt I, Sayı 2 (2013), S. 1–16. DOI: 2013. 10.12975/rastmd.2013.01.02.00012
14. Ogulsadap Eyeberdiyeva. Türkmen Görogli destani’nda müzikle ilgili kavram alanı. Yüksek lisans tezi. – Denizli, temmuz, 2022.
15. Galimova E.M. Традиционная музыкальная культура пермских татар. диссертации кандидат искусствоведения. 2-е издание. – Казань, 2014. – 324 с.
16. Азимов С. Лексикого-грамматическое исследование музыкальной терминологии узбекского языка: диссертации кандидат филологических наук. – Ташкент, 1981.